

XO'JA DONIYOR OTA MAQBARASI HAQIDA MA'LUMOT

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Sa'dullayev Muhammad Asqar o'g'li

Samarqand filiali TT 23.04-guruh talabasi

Annontatsiya:

Samarqanddagi bu me'moriy yodgorlik, Afrosiyob qo'rg'onining kunchiqar tomonida, Siyob arig'i yoqasida qurilgan. Bu maskanda dunyoning turli hududlaridan musulmon, xristian, yahudiy sahoyatchilar doimiy kelib ketadilar. Muqaddas Xoja Doniyor maqbarasi bir vaqtning o'zida uchta jahon dinlarida: yahudiylikda, islomda va nasroniylikda hurmatga sazovor bo'lgan avliyoning dafn etilgan joyidir. Musulmonlar uni Xo'ja Doniyor payg'ambar (Qur'onda zikr etilmagan, lekin 124 ming payg'ambarlardan biri, yahudiylar Daniel payg'ambar, xristianlikda Daniil payg'ambar) deb atashadi. Rus manbalarida "Святой Даниил" deb ham ataladi. Bu maqolada uning hayot davomidagi qilgan ishlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: fiqh, hadisshunos, din, tobein, fuzalo, islom, qomus, hidoyat, Imom, risola, qur'on.

Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhovaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, shubhasiz madaniyat sohasidagi yangi yutuqlar, o'zgarishlarga va islohotlarning amalga oshishiga turtki bo'ldi.

Samarqanddagi bu me'moriy yodgorlik, Afrosiyob qo'rg'onining kunchiqar tomonida, Siyob arig'i yoqasida qurilgan. Bu maskanda dunyoning turli hududlaridan musulmon, xristian, yahudiy sahoyatchilar doimiy kelib ketadilar. Muqaddas Xoja Doniyor maqbarasi bir vaqtning o'zida uchta jahon dinlarida: yahudiylikda, islomda va nasroniylikda hurmatga sazovor bo'lgan avliyoning dafn etilgan joyidir. Musulmonlar uni Xo'ja Doniyor payg'ambar (Qur'onda zikr etilmagan, lekin 124 ming payg'ambarlardan biri, yahudiylar Daniel payg'ambar,

xristianlikda Daniil payg‘ambar) deb atashadi. Rus manbalarida “Святой Даниил” deb ham ataladi.

Xoja Doniyor shaxsiyati haqida turli fikrlar va qarashlar mavjud. Masalan, ularning biriga ko‘ra bu zot milloddan avvalgi 603-yilda Quddusda dunyoga kelgan. Dovud va Sulaymon payg‘ambar avlodidan bo‘lib, 2600 yil oldinroq yashab o‘tgan. Iso alayhissalomdan 600 yil, Muhammad S.A.V. dan 1200 yil oldin yashab, yakkaxudolikni targ‘ib qilgan. Injilda talqin etilishicha, Daniil yahudiy tilidan tarjimai „Olloh hakam“ ma’nosini bildiradi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Avliyo zot Doniyor Bobil askarlariga asirlikka tushib qoladi. Uni Quddusdan Bobilga olib ketadilar. Podsho Navixudonasorning saroyiga tush ta’birchi bo‘lib xizmatda bo‘ladi.¹ Keyinchalik taxtni forslar podshosi Doro I egallaydi va Xo‘ja Doniyorni Bosh vazir qilishni o‘ylab qoladi. Lekin podshohning bu niyatini boshqa vazirlar eshitib, Doniyorni yo‘q qilish payida reja tuzadilar. Xoja Doniyorga tuhmat qilib kishanlab, zanjirband qilib podshohning huzuriga olib kirishadi. Doniyor payg‘ambarni sherlar qafasiga tashlaydi. Podshoh kechasi bilan uxlolmay, erta tongda u boshqa vazirlarni ushlab, mening eng yaxshi ko‘rgan vazirim o‘ldi, endi senlarga ham omonlik yo‘q, deb, sherlarga yem qilish uchun o‘sha chuqurga olib keladi. Sherlar yotgan chuqurni ochib qarashsa, Doniyor payg‘ambar hayvonlar bilan suhbatlashib o‘tiribdi. U omon chiqib, yana uzoq yillar odamlarni yakka xudoga sig‘inishga da’vat qilib, turli qarashlardan qaytarib yashab o‘tganlar. Keksaygach, Suzaga ko‘chib, izzat-hurmat bilan Suza shahriga dafn etilgan.

Islom diniga ko‘ra Xoja Doniyor payg‘ambar Muhammad payg‘ambarning amakivachchasi sifatida tanilgan Qusam ibn Abbosning safdoshlari bo‘lgan. Bu haqda Samarqandlik tarixchi Abu Tohirxo‘ja „Samariya“ kitobida shunday yozadi: “Xoja Doniyorning qabri Samarqand shahrining chetida, Afrosiyob qo‘rg‘onining shimoliy devori pastida joylashgan. Maqbaraning yaqinidan Siyob daryosi oqadi. Avom bu qabrni Doniyor payg‘ambarning qabri deb biladi, lekin uning qabri Mosul viloyatidadir. Aytishlaricha, bu qabr Qusam ibn Abbos safdoshlaridan birining qabridir. Olloh rahmat qilsin! Qabr Zarafshonning toshlari bilan qoplangan. Aytishlaricha, Xoja Doniyor juda taqvodor, xudojo‘y bo‘lgan. Qabrning bosh tomonida, Siyob arig‘i yaqinidan Xoja Doniyor buloq-chashmasi ham bor. Xalq uni

¹ <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>



tabarruk bilib ichadilar va cho‘miladilar. Uni ko‘p kasallar shifosiga sabab deb biladilar. U kishiga tangrining rahmati bo‘lsin!²”

Bu haqida Abul Hakim Samarqandiyning “Qandiya” kitobida quyidagilarni yozadi: - “Samarqandda bir chashma borkim, jannat chashmalaridandur va Obi Rahmat arig‘i yaqinidandur. Tarixchilarning aytishlariga qaraganda, ushbu suv Doniyor Payg‘ambar qabrlari bosh tarafidan oqadi va mazkur chashma shifo salomatlik sababchisidir va bu suvning bir qismi Bog‘i Maydon tomon oqar va Obi Rahmatga qo‘shilur.³ Yuqorida Doniyor Payg‘ambarning qabri bo‘lib, ul zot baraka keltiruvchi Payg‘ambar hisoblanganlar”.

Olimlar orasida haligacha, qachon va qay tarzda Samarqandda Doniyor payg‘ambarning maqbarasi paydo bo‘lganligi to‘g‘risida yagona fikr mavjud emas. Afsonaga ko‘ra, buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining Kichik Osiyoga (1397-1404) yetti yillik yurishi vaqtida, buyuk sarkarda bo‘lishiga qaramay, Suzani zabt eta olmagan. Sohibqiron xudojo‘ylardan, shaharni avliyo Daniilning tabarruk xoki asrab keladi deb eshitadi. Shunda Amir Temur qamal qilinganlar bilan ahdlashib, ularning mol-mulkiga tegmaslikka va asirlarni qullikka olib ketmaslikka va‘da berib, buning evaziga avliyoning bir qism xokini, ya‘ni o‘ng qo‘lini Samarqandga olib ketishni, toki saltanatini har xil ofatlardan saqlasin deb taklif etadi. Uyga qaytayotganda Samarqand shahar yaqinida tuya karvoni birdan to‘xtab qoldi. Bu yuqoridan ishora edi va u yerda maqbara qurishga qaror qildilar. Maqbara qurilganidan so‘ng, yillar o‘tib, rivoyatlarga ko‘ra, qabr o‘sib, uzunligi taxminan 18 metrga cho‘zilgan. Avliyo Samarqandga ko‘milganidan so‘ng qabrning bosh tarafidan buloq otilib chiqadi va shahar aholisi, uning atrofidaqilar bu suvni tabarruk deb biladilar va undan foydalanadilar. Lekin bu afsona islom dini udum va qoidalariga zid bo‘lib chiqadi, ya‘ni o‘tganlarni bezovta qilish mumkin emasdir. Haqiqatga yaqini balki, buyuk sarkarda Samarqandga Suzadan bir qism xoklarini olib kelgan bo‘lsa kerak va uning buyrug‘i bilan maqbara harbiy yurishning muvaffaqiyatli g‘alabasi nishonasi sifatida qurilgandir.

Maqbara ulamolar tomonidan vaqti-vaqti bilan qurib bitkazildi, uzaytirildi va XX asrning boshida payg‘ambar qabri ustida beshta past gumbazli zanjirli to‘rtburchak uzun maqbara binosi qurildi. Dunyo bo‘yicha Doniyor payg‘ambarning

² <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>

³ <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>



5 ta qabri bor. Eng uzuni Samarqanddagi hisoblanadi. Afsonaga ko‘ra qabr o‘sib borgan va yoki payg‘ambar hoki aynan qayerda ekanini bildirmaslik uchun uzun qilib qurishgan.

Ziyoratgohga tashrif buyuruvchi uch din vakillari har biri o‘z odatiga ko‘ra maqbarani tavof etadilar. Yahudiy ravvinlar qabr boshida Torani o‘qisalar, xristian poplar Injilni o‘qiydilar, musulmonlar bir kalima Qur‘on oyatlarini o‘qib, duoga qo‘l ochadilar.

1996-yilda Moskva va butun Rossiyaning 15-patriarxi Aleksiy II O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida Samarqandga, xususan, Xo‘ja Doniyor maqbarasiga tashrif buyurdi. Maqbaraning yonida 600 yillik pista daraxti bor edi, u quriy boshlagan bo‘lib, patriarx daraxtni muqaddas qilishga qaror qilib, ilohiy suv sepib ketadi va bir muncha vaqt o‘tgach, daraxt yana jonlanadi. Daraxt ko‘karishiga boshqa sabab ham bor. Patriarx Aleksiy kelishiga tayyorgarlik ko‘rilib, odamlar pista daraxti shohlariga shirk qilib bog‘lab tashlagan latta-putta, iplar olib tashlanadi, shoh-shabbalarga ishlov berilib, ko‘proq sug‘oriladi.

Ziyoratgohda tuproq devorlar orasida g‘aroyib yog‘och eshik ham bor. Bu kichikkina eshik chillaxona eshigidir. Bu yerga kirib, zikr bilan band bo‘lishgan. Hozirda kirishga ruxsat yo‘q. Chunki, tuproq bosib qolishi xavfi bor.

2001-yilda Samarqand shahri va uning tarixiy me‘morchilik va arxeologik yodgorliklari, jumladan maqbara va Xo‘ja Doniyor majmuasi “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” nomi bilan YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi.

Maqbara cho‘ziq 15 metrga yaqin to‘rtburchak tarhli, peshtoq, besh gumbazli xonadan iborat. Peshtog‘i shimoliy tomonda va uning ikki yonidagi qubbali, ko‘zasimon kursili guldastalari ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan, yon tomonlariga ham ravoqlar ishlangan. Maqbara ichida cho‘zinchoq daxma bor. Maqbara ichida dunyodagi eng uzun qabr 18 metr uzunlikka ega. Qabrning balandligi janub tomonida 90 sm., shimol tomonida 160 sm., shimol tarafi birmuncha kengroq 2 metr chunki, bu tomondan to‘rtburchak sag‘ona o‘rnatilgan. Sag‘ona pishiq g‘isht bilan terilib, qumshuvoq qilingan va qur‘oniy yozuvlarga ega bo‘lgan marmar panellar bilan bezatilgan.⁴ Sag‘onaning qarama-qarshi tomonida,

⁴ <https://www.samdu.uz/uz/news/33104>

<https://www.samdu.uz/uz/news/33104>



maqbaraning shimolga qaratilgan derazasining tokchasida, hajmi uncha katta bo‘lmagan, mahalliy aholi „niyat-toshi“ deb atalgan, arabiy yozuvlarga ega bo‘lgan tosh bor. Ziyoratchilar Hazrati Doniyor qabrini bir yoki uch marta niyat qilib aylanadilar va bu toshni ko‘tarishga yoki hech bo‘lmasa qimirlatishga harakat qiladilar.

Qabrning uzunligi to‘g‘risida bir necha rivoyatlar bor. Ularning birida aytilishicha, olib kelingan turbat-muqaddas hisoblanganligi uchun, yomon niyatli kishilar qoldiqlarni kovlab olib ketishlari mumkin edi. Shuning uchun uzun qabr kovlanib, Payg‘ambarning qoldiqlari uning qayerigadir ko‘milgan. Boshqa mulohazalarga qaraganda dunyoda o‘sadigan qabrlar bor va Doniyor Payg‘ambarning qabri shu qabrlar sirasiga kiradi. Bu fikrga ko‘ra, har 100 yilda payg‘ambarning suyaklari bir gazga (72 sm) o‘sar ekan, shuning uchun qabr shunday uzunlikka ega ekan. Agar qabrning ikki tomoni aylana shaklida birlashib, yer sharini qamrasa, yer yuzida jannat bo‘lar ekan.

Doniyor payg‘ambar maqbarasi turli davrlarda har-xil ko‘rinishga ega bo‘lgan. Rossiya imperiyasi davrida nashr etilgan kitobda Doniyor Payg‘ambarning 1870-1980-yillardagi gravyura surati aks ettirilgan. Unga ko‘ra, o‘sha davrlarda Doniyor Payg‘ambar qabri usti daryo toshlari bilan terilgan va uning atrofida kichik ayvon va xona (masjid) mavjud bo‘lib, qabr atrofida ruhoniylar va avliyolarning belgisi bo‘lgan oltita tug‘ o‘rnatilgan. Tug‘lar maxsus toshlarga o‘rnatilgan bo‘lib, hozirda ham ushbu tug‘larni ushlab turgan toshlar bor, lekin tug‘lar saqlanmagan.

XIX asr oxirlarida ushbu qabr ustida maqbara qurildi. Unga boradigan asosiy yo‘l qadimiy Afrosiyob shaharchasidan bo‘lib, maqbaradan sal balandroqda kirish darvozaxona-ayvoni qurilgan. Uning qoldiqlari hanuzgacha saqlanib kelinmoqda va u ham maqbara qurilgan paytda bino etilgan. Hazrati Doniyor qabri ustidagi mavjud bo‘lgan maqbara XX asrning boshida Samarqand sovunpazlarining ustozlari Mahmud oqsoqol tomonidan bunyod etilgan, chunki Hazrati Doniyor sovunpazlarning piri hisoblanadi.⁵ Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, maqbaraning qurilishida Miroshnichenko ismli rus tadbirkor-savdogar ham o‘z hissasini qo‘shgan.

Maqbarada bir necha bor ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ziyoratgoh atrofi devor bilan o‘ralib, ziyoratgohga chiqish uchun 3 qisimli zinapoya qurildi. Shu bilan birgalikda qabr atrofi oniks va qora marmar bilan qoplandi. XX asrning boshlarida

⁵ <https://www.samdu.uz/uz/news/33104>



olingan bir fotosuratda maqbara olti gumbazli bo'lgan, hozirgi vaqtda esa gumbazlarining soni beshta bo'lib, ular keyinchalik buzilib, qaytatdan tiklangan bo'lishi mumkin. Maqbaraning shimol tomonida imoratning yuqori qismini ikki burchagidan pishiq g'ishtdan terilgan qubbalar bezatadi. Ular yevropacha uslubda qurilgan. Ichki qismida o'sha davrda qo'llaniladigan, qalqonsimon langarlar hamda gumbazlarni ko'tarib turgan ravoqlar ishlatilgan.

2001-yilda majmua atrofida arxeologik qazishmalar olib borildi. XIV asrga tegishli masjid qoldiqlari topildi. Masjidning mehrob tokchasi Makka tomoniga qaratilgan. Qariyalarning aytishlaricha, masjid ikkinchi jahon urushi davrida noma'lum sabablarga ko'ra buzilgan. Imoratning devorlari cho'pkori uslubida qurilgan bo'lib, tagsinch bolori pishiq g'ishtli asosga yotqizilgan edi. Masjidning shimoliy qismida maydoni 25 kv.metrli ayvoni va masjidga kirish eshigi shu yerdan bo'lgan. Ayvonning shimoli-g'arbiy burchagida uzunligi 80 sm., eni 40 sm., qalinligi 20 sm. kattalikdagi ikkita to'g'ri burchakli tosh plitasi topildi. Ular qabr toshlar yasash uchun xomashyo edi. Masjid janubiy devorining tag qismi sinchiklab o'rganilganda u yerda XVII asrga oid g'ishtlar topildi. Mehrobli devor esa, ancha qadimgi devor o'rnida, jarlikning yonbag'rini ushlab turish uchun qurilgan ekan. Bu yerdagi va janubiy devor tagidagi g'ishtlar XIV asr oxiri va XV asr boshlariga oiddir. Xulosa qilib aytganda, bu maqbara mamlakatimiz sarhadlaridagi eng noyob maqbaralardan biri sanaladi. Asosiysi shuki bu maqbara xalqimizga xos diniy bag'rikenglik namunasi sanaladi. Ayniqsa hozirgi tahlikli zamonda qaysi din e'tiqod bo'lmasin tinch-totuv yashash muhimdir. O'zbekistonda esa yahudiy sinagogasi ham, xristian cherkovi ham saqlanib qolgani va faoliyat yuritayotgani mamlakatimiz va xalqimizning o'ziga xos bag'rikengligini ifodalovchi bosh omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
2. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
3. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
4. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
5. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).



6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
7. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
8. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>
9. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-2>.
10. <https://uz.wikipedia.org/>
11. <https://www.samdu.uz/uz/news/33104>

